



DAVLAT XARIDLARI JARAYONIDA INSON OMILINING O'RNI

G'ofurov Temur

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0002-0810-0551

temurgafurov05@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda davlat xaridlari jarayonida inson omilining o'rni, uning ijobiy va salbiy jihatlari hamda xaridlar tizimining samaradorligiga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, davlat xaridlarida shaffoflikni ta'minlash, korrupsiya xavfini kamaytirish va qaror qabul qilish jarayonlarini takomillashtirishda raqamli texnologiyalar hamda elektron platformalarning ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot natijasida inson omilini optimallashtirish orqali davlat mablag'laridan samarali foydalanish va xaridlar tizimining ochiqqligini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, davlat xaridlari, inson omili, elektron tender, raqamli texnologiyalar, shaffoflik, avtomatlashtirish, korrupsiya xavfi, samaradorlik, davlat boshqaruv.

РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ФАКТОРА В ПРОЦЕССЕ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ЗАКУПОК

Гафуров Темур

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье анализируется роль человеческого фактора в процессе государственных закупок, его положительные и отрицательные аспекты, а также влияние на эффективность системы закупок. Кроме того, раскрывается значение цифровых технологий и электронных платформ в обеспечении прозрачности государственных закупок, снижении коррупционных рисков и совершенствовании процессов принятия решений. По результатам исследования разработаны предложения по оптимизации человеческого фактора с целью повышения эффективности использования государственных средств и обеспечения большей открытости системы государственных закупок.

Ключевые слова: искусственный интеллект, государственные закупки, человеческий фактор, электронный тендер, цифровые технологии, прозрачность, автоматизация, коррупционные риски, эффективность, государственное управление.

THE ROLE OF THE HUMAN FACTOR IN THE PUBLIC PROCUREMENT PROCESS

Gafurov Temur

Tashkent State University of Economics

Abstract. This thesis analyzes the role of the human factor in the public procurement process, its positive and negative aspects, and its impact on the efficiency of the procurement system. It also highlights the importance of digital technologies and electronic platforms in ensuring transparency in public procurement and improving decision-making processes. Based on the research findings, recommendations have been developed to optimize the human factor, enhance the efficient use of public funds, and increase the openness and transparency of the public procurement system.

Keywords: artificial intelligence, public procurement, human factor, electronic tendering, digital technologies, transparency, automation, corruption risks, efficiency, public administration.

Kirish.

Bugungi kunda davlat xaridlari tizimi davlat mablag'laridan samarali foydalanish, iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish hamda aholini sifatli tovar, ish va xizmatlar bilan ta'minlashning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Davlat xaridlari orqali byudjet mablag'larining katta qismi iqtisodiyotning turli tarmoqlariga yo'naltiriladi. Shu sababli xarid jarayonlarining shaffofligi, samaradorligi va adolatlilikini ta'minlash davlat boshqaruvi tizimining ustuvor vazifalaridan biri sanaladi.

Davlat xaridlari jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron savdo maydonchalari va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari keng joriy etilayotgan bo'lsa-da, inson omili hanuzgacha muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xaridlarni rejalashtirish, texnik topshiriqlarni shakllantirish, takliflarni baholash, g'oliblarni aniqlash va shartnomalarni ijro etish bosqichlarida insonning qaror qabul qilishi jarayon natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Bir tomondan, malakali mutaxassislarning bilim va tajribasi xaridlar sifatini oshirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, subyektiv yondashuvlar, manfaatlar to'qnashuvi va korrupsion holatlar davlat xaridlari tizimining samaradorligini pasaytirishi mumkin. Ayniqsa, inson omili bilan bog'liq xatolar va qonun buzulishlari davlat mablag'larining samarasiz sarflanishiga hamda raqobat muhitining buzilishiga olib keladi.

So'nggi yillarda sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data) tahlili va elektron tender tizimlarining rivojlanishi davlat xaridlarida inson omilini maqbullashtirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Mazkur texnologiyalar xarid jarayonlarini avtomatlashtirish, korrupsiya xavfini kamaytirish, inson xatolarini minimallashtirish hamda qaror qabul qilishning xolisligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Ushbu maqolaning maqsadi davlat xaridlari jarayonida inson omilining o'rnini tahlil qilish, uning ijobiy va salbiy jihatlarini aniqlash hamda xaridlar tizimida samaradorlik va shaffoflikni oshirishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi.

Davlat xaridlari tizimida inson omilining o'rni va uning xaridlar samaradorligiga ta'siri masalalari xorijiy hamda mahalliy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Ilmiy adabiyotlarda davlat xaridlarini tashkil etish, xarid jarayonlarida inson omilining ta'siri, korrupsiya xavflarini kamaytirish hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Xususan, K.V. Thai davlat xaridlarini boshqarish samaradorligi ko'p jihatdan xaridlarni amalga oshiruvchi mutaxassislarning malakasi, kasbiy etikasi va qaror qabul qilish kompetensiyalariga bog'liqligini ta'kidlaydi (Thai, 2004). S. Arrowsmith esa davlat xaridlarida shaffoflik, hisobdorlik va raqobat muhitini ta'minlashda inson omili muhim rol o'ynashini qayd etadi. OECD hamda Jahon banki ekspertlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda elektron xarid tizimlari inson omili bilan bog'liq subyektiv qarorlar, xatolar va korrupsiya xavflarini sezilarli darajada kamaytirishi, natijada davlat mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirishi asoslab berilgan. (Arrowsmith, 2014)

Mahalliy tadqiqotlarda ham davlat xaridlarini takomillashtirish, xarid jarayonlarini raqamlashtirish va elektron tender mexanizmlarini rivojlantirish masalalari keng yoritilgan. O'zbekiston Respublikasida davlat xaridlari tizimini modernizatsiya qilish, elektron savdo platformalarini joriy etish va ochiqlikni ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar xarid jarayonlarining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, davlat xaridlarida inson omilining ijobiy va salbiy ta'sirlarini kompleks baholash, ayniqsa inson omili va sun'iy intellekt texnologiyalarining o'zaro uyg'unlashuvi natijasida xaridlar samaradorligini oshirish imkoniyatlari yetarli darajada o'rganilmagan. Mavjud tadqiqotlarning aksariyati elektron xarid tizimlarining texnik va huquqiy jihatlariga qaratilgan bo'lib, inson omilini optimallashtirish, qaror qabul qilish jarayonlarida sun'iy intellektdan foydalanish hamda inson va raqamli

texnologiyalar o'rtasidagi samarali hamkorlik mexanizmlarini ishlab chiqish masalalari yetarlicha tadqiq etilmagan (OECD Publishing, 2015)

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda davlat xaridlari jarayonida inson omilining o'rni va uning xaridlar samaradorligiga ta'siri o'rganildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning tahlil va sintez, taqqoslash, tizimli yondashuv hamda umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, davlat xaridlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari hamda davlat xaridlari tizimiga oid statistik ma'lumotlar tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida davlat xaridlarida inson omilini optimallashtirish va xaridlar samaradorligini oshirish bo'yicha xulosalar hamda takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Davlat xaridlari tizimi mamlakat iqtisodiyotida muhim moliyaviy instrument hisoblanib, davlat byudjeti mablag'larining sezilarli qismi aynan xaridlar orqali sarflanadi. Shu sababli xarid jarayonlarining samaradorligi davlat mablag'laridan oqilona foydalanish, korrupsion xavflarni kamaytirish hamda iqtisodiyotda raqobat muhitini rivojlantirish bilan bevosita bog'liqdir. Mazkur jarayonlarda inson omili muhim o'rin tutib, xaridlarning natijadorligiga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, davlat xaridlarining rejalashtirish bosqichidayoq inson omilining ta'siri namoyon bo'ladi. Xususan, xarid predmetini shakllantirish, texnik topshiriqlarni ishlab chiqish va xarid qiymatini aniqlash jarayonlarida mutaxassislarining malakasi va tajribasi muhim ahamiyatga ega. Yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmagan mutaxassislar tomonidan tayyorlangan texnik topshiriqlar bozordagi real ehtiyoj va imkoniyatlarni to'liq aks ettirmasligi mumkin. Natijada xarid obyekti bo'yicha raqobat cheklanadi yoki davlat mablag'larining samarasiz sarflanishiga sabab bo'ladi.

Davlat xaridlarining asosiy xavfli bosqichlaridan biri takliflarni baholash va g'olibni aniqlash jarayonidir. An'anaviy xarid tizimlarida baholash mezonlarining noto'g'ri qo'llanishi, manfaatlar to'qnashuvi yoki subyektiv qarorlar qabul qilinishi ehtimoli mavjud. Bunday holatlar ayrim ishtirokchilarga asossiz ustunlik berilishiga, bozordagi raqobatning pasayishiga hamda korrupsion holatlarning yuzaga kelishiga olib keladi. Xalqaro tashkilotlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar davlat xaridlaridagi korrupsion xavflarning asosiy qismi aynan inson tomonidan qabul qilinadigan qarorlar bilan bog'liqligini ko'rsatmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda davlat xaridlarini raqamlashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar inson omili bilan bog'liq xavflarni kamaytirishga xizmat qilmoqda. Elektron tender va elektron do'kon tizimlarining joriy etilishi natijasida xarid jarayonlari avtomatlashtirilib, xarid e'lonlari, takliflar va natijalar yagona axborot bazasida shakllantirilmoqda. Natijada xarid ishtirokchilarining teng imkoniyatlarga ega bo'lishi ta'minlanib, inson omilining noqonuniy aralashuvlari sezilarli darajada qisqarmoqda.

Shu bilan birga, davlat xaridlarida inson omilining faqat salbiy jihatlari mavjud emas. Murakkab texnologik uskunalar, innovatsion loyihalar va ilmiy ishlanmalarni xarid qilish jarayonida insonning kasbiy tajribasi, tahliliy fikrlashi va strategik qaror qabul qilish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Sun'iy intellekt tizimlari katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilishda samarali bo'lsada, ular huquqiy, ijtimoiy va strategik omillarni har doim ham to'liq hisobga ola olmaydi. Shu sababli inson va sun'iy intellektning o'zaro uyg'unligi davlat xaridlari samaradorligini oshirishning eng maqbul modeli hisoblanadi.

Tadqiqot davomida sun'iy intellekt texnologiyalarining davlat xaridlarida qo'llanish istiqbollari ham tahlil qilindi. Sun'iy intellekt algoritmlari yordamida bozor narxlarini monitoring qilish, shubhali bitimlarni aniqlash, xarid risklarini baholash hamda yetkazib beruvchilar reytingini shakllantirish imkoniyati mavjud. Bu esa xaridlar jarayonida inson omilidan kelib chiqadigan xatolarni kamaytirib, qaror qabul qilish tezligi va aniqligini oshiradi.

Masalan, narxlarni avtomatik tahlil qiluvchi tizimlar bozor bahosidan sezilarli darajada yuqori takliflarni aniqlab, davlat mablag'larining ortiqcha sarflanishining oldini olishga xizmat qiladi.

Biroq xarid jarayonlarining to'liq avtomatlashtirilishi ham ayrim xavflarni yuzaga keltiradi. Dasturiy ta'minotdagi texnik nosozliklar, algoritmik xatolar, ma'lumotlar bazasining noto'g'ri shakllantirilishi hamda kiberxavfsizlik tahdidlari xarid natijalarining ishonchliligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun sun'iy intellekt tizimlari faoliyatini nazorat qilish, algoritmlar shaffofligini ta'minlash va inson nazoratini saqlab qolish muhim ahamiyatga ega.

O'tkazilgan tahlillar asosida davlat xaridlarida inson omilini to'liq bartaraf etish emas, balki uni optimallashtirish zarurligi maqbul yechimdur. Bunda texnik va takrorlanuvchi jarayonlarni avtomatlashtirish, ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash vazifalarini sun'iy intellekt zimmasiga yuklash, strategik qarorlar qabul qilish, nazorat va javobgarlik bilan bog'liq funksiyalarni esa malakali mutaxassislar tomonidan amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mazkur yondashuv davlat xaridlari tizimining shaffofligi, samaradorligi va ishonchliligini oshirish bilan birga, korrupsion xavflarni kamaytirish hamda davlat mablag'laridan foydalanish natijadorligini yanada yuksaltirish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, davlat xaridlari jarayonlarida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish inson omili bilan bog'liq xatolar, subyektiv qarorlar hamda korrupsion xavflarni sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qiladi. Elektron xarid platformalari va avtomatlashtirilgan tizimlar xarid jarayonlarining shaffofligi, tezkorligi va samaradorligini oshirish bilan bir qatorda davlat mablag'laridan oqilona foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida davlat xaridlarida inson omilini to'liq bartaraf etish maqsadga muvofiq emasligi aniqlandi. Sun'iy intellekt ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilishda yuqori samaradorlikka ega bo'lsa-da, murakkab va nostandart vaziyatlarda insonning kasbiy tajribasi, tahliliy fikrlashi hamda strategik qaror qabul qilish qobiliyatini to'liq almashtira olmaydi. Shu sababli davlat xaridlarida inson va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan uyg'un foydalanish eng samarali yondashuv hisoblanadi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari davlat xaridlari tizimida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish inson omili bilan bog'liq xatolar, subyektiv qarorlar hamda korrupsion xavflarni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi. Elektron xarid platformalari va avtomatlashtirilgan tizimlar xarid jarayonlarining shaffofligi, tezkorligi va samaradorligini oshirish bilan bir qatorda davlat mablag'laridan oqilona foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, davlat xaridlarida inson omilini to'liq bartaraf etish maqsadga muvofiq emas, chunki sun'iy intellekt murakkab va nostandart vaziyatlarda insonning kasbiy tajribasi, tahliliy fikrlashi hamda strategik qaror qabul qilish qobiliyatini to'liq almashtira olmaydi. Shu sababli davlat xaridlarida inson va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan uyg'un ravishda foydalanish, texnik va takrorlanuvchi jarayonlarni avtomatlashtirish, yakuniy nazorat va strategik qarorlarni esa malakali mutaxassislar tomonidan amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, davlat xaridlari tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etish, mutaxassislarning raqamli ko'nikmalarini oshirish, axborot xavfsizligini kuchaytirish hamda ushbu sohadagi huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish zarur. Natijada davlat xaridlarining shaffofligi, samaradorligi va ishonchliligi yanada ortib, davlat mablag'laridan foydalanish samaradorligi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish natijadorligi ta'minlanadi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Al-Azzam K.S., Al-Dulaimi K.M. (2025) *Using Artificial Intelligence in a Tender Process. Corporate Law & Governance Review.*

Alon-Barkat S., Busuioc M. Human-AI(2021) *Interactions in Public Sector Decision-Making. Public Administration Review*, .

Andersson P.E. (2025) *Assessing the Value of Artificial Intelligence in Public Procurement. Stockholm School of Economics*. .

Arrowsmith, S.(2014) *The Law of Public and Utilities Procurement: Regulation in the EU and UK*. – 3rd ed. – London: Sweet & Maxwell, .

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. *Davlat xaridlari sohasiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar va uslubiy qo'llanmalar*.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining *davlat xaridlarini raqamlashtirish va takomillashtirishga oid farmon va qarorlari*.

O'zbekiston Respublikasi (2021) O'RQ-684-sonli "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonun 22aprel.

OECD. *Digital Transformation of Public Procurement*. Paris: OECD Publishing.

OECD. (2015) *Public Procurement for Sustainable and Inclusive Growth: Enabling Reform through Evidence and Peer Reviews*. – Paris: OECD Publishing.

Orio G.J. (2025) *Impact of Artificial Intelligence on Procurement Management Performance*. NG Journal of Social Development.

Thai, K.V. (2004) *Public Procurement Re-Examined*. – Florida: International Public Procurement Conference Proceedings.

United Nations. *E-Government Survey: Digital Government for the People*. New York: United Nations Publications.

Uusivirta K. *The Use of Artificial Intelligence in Procurement of Large Organizations*. Master's Thesis, LUT University.